

## BUYUK FREYD VA PSIXOANALIZ. TA'LIMOTI

*Toshkent amaliy fanlar Universituti, „Psixologiya“ kafedrasi o'qituvchisi  
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinova  
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi  
2-bosqich talabasi:  
Axmadjonova Roziya*

**Annotsiya:** Zigmund Freyd uning asl ismi - Sigismund Schlomo Freud 6-may 1856 yilda Fraybergda tavallud topgan (hozirgi Chexiya). Zigmund Freyd 17 yoshida, ya'ni 1873 yili gimnaziyani muvaffaqiyatli tugatib, mashhur Vena universitetining meditsina fakultetiga o'qishga kiradi. Vena universiteti Yevropada eng mashhur ilm maskanlaridan biri bo'lib, unda dunyoga mashhur olimlar dars bergan. U 1876–1882 yillari Ernst Bryukkning fiziologiya laboratoriyasida ilmiy izlanishlar olib boradi va orqa miyaning fiziologiyasi bilan shug'ullana boshlaydi. Avstriyalik nevrolog va ruhshunos bo'lib, u psixotahlilga asos solgan. Freyd odam tabiati zamirida jinsiy ehtiyoj yotadi, degan fikrni o'rtaga tashlagan. U freydizm asoschisi. 1902-yildan Vena universiteti professor, 1938-yilda Angliyada Freydning dastlabki tadqiqotlari - Bosh miya fiziologiyasi va anatomiyasiga bag'ishlangan. 19-asrning 80-yillarida nevrozlar muammosiga, 90-yillarning o'rtasidan boshlab esa ruhiy taxlil (psixoanaliz) asosida nevrozlarni davolash usuliga e'tiborini qaratdi. Individning psixoseksual rivojlanishi nazariyasini takomillashtirdi, fe'l-atvorning shakllanishi va uning patologiyasida bolalik davri kechinmalarini asosiy o'ringa qo'ydi. Psixoanaliz qoidalarini insoniyat madaniyatining turli sohalari — mifologiya, folklor, badiiy ijod, din va boshqalarga joriy qildi. Freydning ba'zi fikrlarini neofreydizm inkor etadi.

**Kalit so'zlar:** Psixoanaliz, psixotahlil, fiziolog, nevroz, psixoseksual rivojlanish, mifologiya, neofreydizm, ruhiy tahlil, sotsiologiya, psixologik nazariya, ong, ruhiyat.

**Kirish: Zigmund Freyd va uning psixoanalitik (ruhiy tahlil) sotsiologiyasi.**

Reja:

1. Zigmund Freydning hayoti va ijodi
2. Psixoanalizning yaralishi
3. Erkin assotsiatsiyalar usuli

Ilm pillapoyalari

Zigmund Freyd 1876-1882 yillari Ernst Bryukkning fiziologiya laboratoriyasida ilmiy izlanishlar olib boradi va orqa miyaning fiziologiyasi bilan shug'ullana boshlaydi. Fiziologik jarayonlarni o'rganishga sho'ng'ib ketgan Freyd ruhiyatning

biologik asoslari va fiziologik parametrlariga e'tibor qaratdi. U tug'ma instinktlar bilan ruhiyat orasida bog'liqlik izlaydi.

O'sha davrlarda psixologiyada falsafiy qonunlar ustunlik qilib, psixologlar voqea va hodisalarning tafsilotlarini o'rganish bilan chegaralanib qolishgan, ya'ni ularni miyadagi fiziologik jarayonlar bilan bog'lashmagan. Chunki o'sha paytlarda fiziologiya hali rivojlanmagan edi.

Freydning keskin ilgari ketganligining asosiy sababi – uning fiziologiya va biologiya qonunlariga qat'iy amal qilganligida. U endi rivojlanib kelayotgan fiziologiyaning har bir yutug'idan psixologik qonuniyatlarni o'rganishda muvaffaqiyatli foydalandi. Freyd voqea va hodisalar tafsiloti bilan chegaralanib qolmasdan, ularning kelib chiqish sabablari va asl mohiyatini izlab topishga intildi.

Uning bu xarakteri umrining oxirigacha unga hamroh bo'ldi. Freydning fiziologiya bo'yicha ustozlari Ernst Bryukk o'z davrining buyuk fiziologi bo'lgan. Bir necha yillardan so'ng butun dunyoga mashhur bo'lishga intilgan Zigmund Freyd Ernst.Bryukk bilan o'tkazgan onlarini eslab: “Men ustozim Bryukk bilan laboratoriyada soatlab qolib ketardim, hayvonlarning orqa miyasi fiziologiyasini o'rganish men uchun eng katta baxt edi” degan. Freyd uni mashhur qilgan psixoanaliz ta'limoti haqida emas, balki fiziologiya haqida zavqlanib gapirgan. U E.Bryukk qo'l ostida umrbod ilmiy ish bilan shug'ullanishga ahd qildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Germaniya sotsiologiya ilmida yana bir etakchi shaxslardan biri Zigmund Freyd o'zining ulkan ishlari bilan dunyoga tanildi. U sotsiolog bo'lmasda, ko'plab mashhur sotsiologlarning (masalan, Talkott Parsons) ijodiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan, va uning ijodi bugungi kunda ham sotsiologiya nazariyotchilari uchun dolzarbligini yo'qotmagan. Avstriyalik psixolog Zigmund Freyd fanda psixologik nazariyani ishlab chiqish bilan ijtimoiy jarayonlarni anglashning ilgari insoniyat tajribasida bōlmagan yōlini asoslab berdi. Uning tata 'takidlashicha, , inson ruhiyatining ong bilan boshqarilmaydigan qismida instiktiv da'vatlar (hoxish - istaklar) hamda xotiradan chiqarilgan fikr-g'oyalar mujassamlangan bo'lib bu qism bilan idora etiluvchi ong o'rtasida ong oldi maydoni (bu maydonchada idrok,tafakkur, xotira anglangan o'zlik joylashgandir.

Nevroz – seksual qoniqmaslik alomatimi?

Z.Freyd 1897 yildan boshlab nevroz va seksual qoniqmaslik orasida bog'liqliklarni sistematik tarzda o'rgana boshlaydi. Freyd seksual qoniqmaslik g'oyasiga shu qadar berilib ketadiki, u nafaqat nevroitik buzilishlar va xulq-atvordagi o'zgarishlarni, balki psixosomatik simptomlarni (bosh og'rig'I, oyoq og'riq, bel og'riq, qorin og'riq, yurak og'rig'I va h.k.) ham seksual qoniqmaslik bilan bog'laydi. Buning natijasida Freyd “panseksualist” degan laqabni oladi. Undan ko'p olimlar va hatto o'zining ustozlari ham yuz o'giradi. Uning maqolalarini chop qilmay qo'yishadi.

Psixozanaliz – ruhiy xastalikni davolash usuli va psixologik ta'limot. U XX asr boshlarida taniqli nemis olimi Zigmund Freyd (1856–1939) tomonidan ishlab chiqilgan. Psixozanaliz asosini inson xulqining negizini lazzat olishga intilish (libido), ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo'lgan jinsiy mayl tashkil etadi, odam xulqini onglilik emas, balki ongsizlik boshqaradi, degan g'oya tashkil etadi. Zigmund Freyd dastavval onglilik, yolg'ochilik va ongsizlikdan iborat psixikaning uch bosqichini tadqiq etdi. Oldingi ikki bosqichdan farq qiluvchi psixik darajani (lotincha instantia – bevosita yaqinlik) ya'ni Senzura deb atadi. Odatda, senzura 2ta funksiyani bajaradi:

1) inson tomonidan o'zining shaxsiy his-tuyg'ulari, mulohazalari va xohishlarini muhokama qiladi, ularni ongsizlik holatidan siqib chiqaradi;

2) onga yorib kirishga intiluvchi faol ongsizlikka qarshilik ko'rsatadi.

Zigmund Freyd shaxs tuzilishining yangi nazariyasini taklif etdi. Bu nazariya 3 xil psixik instansiyaning hukm surishi to'g'risidagi farazni asoslashga qaratildi:

“U” – lazzatlanish, rohatlanish tamoyiliga bog'liq bo'lgan instinktiv mayllarni qamrab oladi;

“Men” (Ego) – tashqi olam bilan bilvosita aloqaga kirituvchi psixologik instansiya;

“Mendan yuqori” (super-Ego) o'z ichiga ijtimoiy taqiqlar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib-qoida va ideallarni qamrab oladi. Uning fikricha, “Men” (Ego) reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi.

Zigmund Freyding ko'rsatishicha, inson faolligi qadimgi avlod-ajdodlaridan nasliy yo'l orqali o'tgan instinktiv mayllar ta'siri bilan belgilanadi. Instinktiv mayllar, dastavval, jinsiy instinkt va o'zini himoya qilishga intilish instinkti tarzida yuzaga keladi. Lekin jamiyat shaxsni ko'p jihatdan cheklab qo'yadi, uning instinkt va mayllarini “senzura”dan o'tkazadi. Natijada shaxs aksariyat instinkt va mayllarini jilovlashga, taqiqlashga majbur bo'ladi. Instinktiv mayllar uning shaxsiyatiga zid bo'lgan ruhiy holat sifatida ongli hayotdan siqib chiqarilsa-da, yo'qolib ketmaydi, balki ongsizlik sohasiga o'tkazib yuboriladi.

Psixozanaliz ta'limotining vazifalaridan biri – ongsizlik sohasidagi “kompleks”larni aniqlash va ularni anglashga yordamlashishdan iborat. Psixozanaliz namoyandalari shaxsdagi ichki ziddiyatlarni ochib berish va tushuntirish uchun “Edip kompleksi” tushunchasini yaratdi. Unga ko'ra, o'g'il bolaning o'z onasiga nisbatan jinsiy mayli va otasining o'limini istashi (“Edip kompleksi”), yaqin qarindoshi bilan jinsiy aloqa qilishga maylligi jazolanishdan qo'rqish hissi bilan to'qnashadi.

Psixozanaliz vakillari shaxsning bundan keyingi taraqqiyotini ongsizlik holatiga siqib chiqarilgan instinktiv mayllarning turlicha komplekslar bilan to'qnashuvi tashkil etadi; instinktiv mayllar o'z quvvati va faolligini saqlagan holda insoniyat madaniyati va inson faoliyati mahsulining har xil shakllariga o'tib (“sublimatsiyalashib”), ongsizlik holatida shaxsning xulq-atvorini boshqarishda davom etadi, degan xulosaga

keladi. Psixoanalizda ongsizlik bilan onglilik o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatni mutlaqlashtirish holatlari uchraydi, buning natijasida ularning o'zaro bir-birini to'ldirish imkoniyati rad etiladi.

**Xulosa:** Buyuk Zigmund Freyd- Freydizm asoschisi hisoblanadi. Zigmund Freyd juda kop ishlar va tadqiqotlar olib brogan Freydning birinchi tadqiqoti- Bosh miya fiziologiyasi va anatomiyasiga ba'g'ishlanadi.

Freyd ta'limoti nafaqat tibbiy fanlar va psixologiya, balki falsafa, etika, estetika, deontologiya, etnologiya, yuridik fanlar, jamiyatshunoslik kabi o'ndan ortiq yirik fanlar ichiga kirib bordi. Fikrimizcha, nafaqat jamiyatda bo'layotgan voqealarni, balki ikkala inson orasida ro'y beradigan har qanday munosabatlarni Zigmund Freyd ta'limotiga asoslanib izohlab berish mumkin.

Man Zigmund Freydning "Psixoanaliz ta'limoti"ni insoniyat oldidagi mohiyati bo'yicha buyuk Eynshteynning "Nisbiylik nazariyasi" bilan befall taqqoslagan bo'lar edim. Agar Nobel mukofoti oluvchilar ro'yxatida psixologlar ham bo'lganida edi, bu mukofotni hech ikkilanmay Freydg taqdim qilishardi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M. Otojanov " Psixoanaliz asoslari" O'quv qo'llanma Toshkent "O'zbekiston" 2004
2. F.I Xaydarov, N.I. Xalolova "Umumiy Psixologiya" darslik Toshkent 2016
3. B.M. Umarov "Psixologiya"
4. Voris-nashriyot Toshkent 2012
5. Luriya A.R. Leksii po obshchey psixologii. – SPb.: Piter, 2016. – 320 s
6. 5- Karimova V.M, Akramova F.A. "Psixologiya".2- qism. Maruzalarni. - T.: TDIU, 2005.-125 b.